



QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI
5-SON

**KOKAND UNIVERSITY
HERALD**

2022
VOLUME №5

**QO‘QON
UNIVERSITETI
XABARNOMASI
5-SON**

**KOKAND
UNIVERSITY
HERALD
VOLUME 5**

**ВЕСТНИК
КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТ
ВЫПУСК 5**

5/2022

QO'QON UNIVERSITETI

XABARNOMASI

Ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

G'.E.Zaxidov

Bosh muharrir:

Sh.R.Ruziyev

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

A.A.Yusupov

Tahririyat hay'ati:

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© "Kokand University" – 2022

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonadon

Mundarija:/Outline:

Iqtisodiyot / Economy			
1.	I. Foziljonov	Modern methods for forecasting cash flows	3-6
2.	D. Nuritdinova	Management of processes of implementation of state interactive services through information technologies	7-9
3.	Tsoy Marina.	The role of gender equality in poverty reduction and decent job creation - world experience and practice of Uzbekistan	10-13
4.	B. Turanboyev B. Rajabboyev	Puzzles involving the stock market, inflation and the predictability of stock market returns	14-17
5.	A. Bakirbekova	К вопросу об управлении человеческими ресурсами в международных компаниях	18-25
6.	J. Kambarov	Yangi sanoat inqilobini risk boshqaruviga ta'siri masalalari	26-29
7.	F. Mulyadinov	Sanoat korxonalari va biznes faoliyatida integratsion axborot tizimlari	30-35
8.	M. Diyarova	Qurilish sohasida kichik biznes sub'yektlarining innovasion faoliyati va uni tashkil etishning asosiy tamoyillari	36-39
9.	R. Toxirov	Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	40-43
10.	M. Boltayeva, A. Suyunov	Mamlakat iqtisodiyotida turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	44-46
11.	O. Ahmadjonov	O'zbekistonda islomiy moliya tizimini qo'llash istiqbollari	47-51
12.	M. Tojiyeva	Biznesni rivojlantirish samaradorligi hamda uni baxolashning uslubiy yondashuvlari	52-58
Pedagogika / Pedagogy			
13.	K. Kaziyev, Sh. Bisenova, F. Khamidullayev	Reflection as a quality for effective professional activities and self-development	59-63
14.	G. Umirova	Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni va roli	64-66
15.	F. Berdibekova	Akmeologik yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish	67-70
16.	M. Salayeva M. Djumabaeva	Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida kreativ faoliyatini rivojlantirish	71-74
17.	B. Ergasheva	Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi pedagogik muammo sifatida	75-77
18.	M. Baqoyeva	Maktabgacha katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirish texnologiyasi	78-81
19.	L. Axmadaliyev	Qayyumiy" asaridagi №3-16-fiqralarning tazkira qo'lyozma va nashri o'rtasidagi matniy-qiyosiy tadqiqi	82-88
20.	S. Muxabbat	O'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy asoslarini takomillashtirish tarixiy-pedagogik zarurat sifatida	89-92
21.	A. Tangriyev	Yosh dzyudochilarda tezkor-kuch qobiliyatining samaradorligini oshirish	93-95
Fizika / Physics			
22.	G. Nafasova	Bo'lajak fizika o'qituvchilarida mantiqiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	96-97
23.	G'. Nafasov D. Abduraimov	Transversal izotrop jism uchun ikki o'lchovli termoelastik bog'liq masalani sonli modellashtirish va uning dasturiy ta'minoti	98-103
Lingvistika / Linguistics			
24.	M. Xolova O. Lolayeva	Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar	104-106



LINGVISTIKADA ORFOGRAFIK TAMOYILLAR VA TAHLILLAR

Xolova Muyassar Abdulhakimovna

Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD),

xolovam@tersu.uz

Lolayeva Ozoda

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs bakalavr,

lolaevao@gmail.uz

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p>Qabul qilindi: 24-dekabr 2022-yil Tasdiqlandi: 26-dekabr 2022-yil Jurnal soni: 5 Maqola raqami: 24 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.229</p>	<p>Ushbu maqolada o'rta ta'lim maktablarida ona tili fani darslarida fanning o'qitilishiga doir qarashlar aks etgan, ya'ni fan doirasida o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish uchun o'qituvchi oldiga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan hamda ularning yechimlaridagi imloviy lug'atlarning tutgan o'rni haqida xulosalar kiril va lotin grafikasi doirasida ishlab chiqilgan imloviy qoidalar va 8-sinf ona tili darsligi misolida yoritilgan.</p>
<p>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</p>	
<p>ona tili fani, imloviy savodxonlik, imlo lug'ati, imlo qoidasi, varvarizm, vulgarizm, kanselyarizm, dialektizm, parazit leksemalar.</p>	

Kirish. Lingvistikada qo'llayotgan har bir leksema, leksemashakl va grammatik birliklar, ularning nutqimizdagi mavjud me'yoriy orfoepik birliklaridan farqli o'laroq orfoepik me'yorlarga bo'ysungan holda ishlatilishidan har bir shaxs, u oddiy o'rganuvchi yoki tilshunos olim bo'lsin bo'xabar bo'lishi lozim. Shu ma'noda o'zbek tilida mavjud 80 000 so'zlikka ega bo'lgan izohli lug'at tarkibidagi leksemalar va so'zlar doirasida 2011 yil, 2013 yilgi imlo qoidalarining ishlab chiqilishi, tilimiz sofligini ta'minlashda o'ziga xos bosqich vazifasini o'tagan. Shu bilan bir qatorda tilimizdagi mavjud til birliklarining o'rganilishi va o'rgatilishini osonlashtiruvchi til korpuslaridan: o'zbek tili korpusi, ta'limiy korpus, o'zbek milliy shevalar korpuslari va o'zbek tili morfologik analizatori ustida olib borilayotgan tadqiqotlar va tahlillar bu boradagi o'rni va ahamiyatga ega bo'lgan qadamlardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu sohaga doir tadqiqotlarni o'tkazishda "kuzatish", "hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish", "qiyoslash", "elektron lug'atlar ustida tadqiq va tahlil" va "til korpusi statistik materiallaridan foydalanish" metodlaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahlili. Lingvistikada orfoepik tamoyillar va tahlillarni ishlab chiqish doirasidagi tadqiqotlar B. Mengliyev, B. Umurqulov, H. Jamolxonov, Sh. Maxmaraimova, R.Sayfullayeva, A. Madvaliyev, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev kabi olimlar tomonidan olib borilgan e'tirofqa sazovordir. Yozma savodxonlikka erishgan har bir individ quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lmog'i ma'lum bosqichlardan iborat va bu bosqichni birini to'la o'zlashtirmasdan ikkinchisiga o'tish shaxsning fan doirasidagi bo'shliqni paydo bo'lishiga olib keladi. Bular:

1) orfoepik savodxonlik. O'rganuvchi tilga doir oddiy elementar grafik belgilarni o'zlashtiradi va ularning qo'llanish chastotasiga doir ko'nikmalar hosil qiladi.

2) punktuansion savodxonlik. Bunda grafik belgilardan xabardor individ orfoepik me'yoriy signallarning punktuatsion simvolik belgilarining akslanishiga doir malakalarini oshiradi.

3) Matn savodxonligi. Yuqoridagi ikki darajani egallagan shaxs mustaqil ravishda matnni kompozitsion, mantiqiy, bo'g'lilikni buzmagani holda fikrlar ketma-ketligi uzilmagan, avvalo elementar, keyinchalik advenced (yuqori daraja, murakkab) (emotsional-ekspressiv bo'yoqlarga ega, ibora va frazeologizmlar, kirish va kiritmalar, ajratilgan bo'laklar, agar matn mazmuni talab etsa: vulgarizm, varvarizm, dialektizm, jargonlar va argolar) matnlar tuza olish ko'nikmasini rivojlantirish.

4) Kanselyar savodxonlik. Bunda shaxsning davlat hujjatlaridan xabardorlik darajasidagi savodxonligini oshirish uchun yuqori sinfdan (ariza, bayonnoma, bildirgi, telegramma va hokazo qisman yondashilgan.

Adabiy til yozma shaklining me'yorlashuvi va takomilida, shuningdek, og'zaki hamda yozma nutq orasidagi bog'liqlik va yaqinlikni mustahkamlashda imlo lug'ati muhim rol o'ynaydi [5]. To'g'ri yozish qoidalari tilshunos olimlar guruhi tomonidan ishlab chiqiladi, jamoatchilik muhokamasiga havola etiladi va aprobatyadan o'tkaziladi. Ushbu jarayonlar o'tkazilagandan so'ng, imloviy qoidalar hukumatning ayni shu doiradagi mutasaddi tashkilotlari tomonidan tasdiqlanadi.

Kishilar o'zaro yozishmalarida, rasmiy ish yuritishda, ta'lim jarayonida, madaniy-ma'rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalariga amal qilishga majburlar. Leksemalar, so'zlar va affiksning imlosida bir xillikning ta'minlanmasligi yozuvlar jarayonida har xillikni yuzaga keltiradi. Pirovardida til qatlamida bir-birini tushunish imkoniyati astasekin yo'qola boradi. Shundan kelib chiqib, 1995- yilning 24- avgustida tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" da lotin alifbosiga o'tish tufayli imlo qoidalaridagi tovush-harf munosabatiga bag'ishlangan qism qayta yozilib, kirill alifbosidagi ё, ю, я harflaridan ъ, ь belgilaridan voz kechildi. Shuningdek harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosi, qo'shib, chiziqcha bilan, ajratib yozish, bosh harflar imlosi hamda ko'chirish qoidalari doir yo'l-yo'riqlar ko'rsatib o'tildi.

Umumiy planda ko'rib o'tadigan bo'lsak, kirill yozuviga asoslangan o'zbek yozuvi va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining qo'llanishiga doir farqli holatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, fe'l so'z turkumining so'zlashuv uslubiga oid – yapti affiksi kel asosiga qo'shilganda келяпти shaklida yozish me'yoriy holat hisoblangan, lotin grafikasiga asoslangan imloviy qoidalarga asosan transliterativ kel(a)yapti eshitilsa-da, kelyapti shaklida yozilishi me'yoriy holat sifatida belgilangan. Ayni shu kabi orfoepik qoidalaridagi o'zgarishlarni -dan affiksi orqali hosil qilinadigan takroriy so'zlarning ni qo'llash bilan bog'liq holatda ham kuzatish mumkin.

Imlo lug'atlarining yillar oralig'ida chiqqan variantlarida ham turililikni kuzatish mumkin, masalan, prof. A.Hojiyev kirill alifbosidagi ё, ю, я harflaridan ъ, ь belgilaridan voz kechish kerakligini ta'kidlasa, prof. Madvaliyev 1956-yil 7-apreldagi qabul qilingan "O'zbek orfoepikasining asosiy qoidalari" rasman bekor qilinmaganligini va kirill yozuviga undan chetlashmasligini ta'kidlaydi.

Quyida biz olimlar A.Hojiyev va A.Madvaliyevlar tomonidan ishlab chiqilgan imlo lug'atlaridagi farqli leksemalarni ko'rib o'tamiz.

	Imlo lug'ati (A.Hokiyev) 2011	Imlo lug'ati A.Madvaliyev 2013
1.	bir zumda [50-bet]	Birzumda [79-bet]
2.	bir yo'la [50-bet]	Biryo'la [79-bet]
3.	budjet [53-bet]	Byudjet [93-bet]
4.	rejissor [163-bet]	rejissor (349-bet)
5.	akkumulator [32-bet]	akkumulator [29-bet]
6.	qavariq [151-bet]	qavariq va qabariq [321-bet]
7.	Bir yoqli [51-bet]	Bir yoqli [79-bet]
8.	Bir yoqlama [51-bet]	Biryoqlama [79-bet]
9.	Bir talay [51-bet]	Birtalay [79-bet]

Yuqoridagi misollarga qarab ikki xil xulosaga kelish mumkin:

ba'zi leksemalarning yozilishiga doir hali bir qarorga kelingani yo'q, bu imloviy luga'tlarning aniq bir tasdiqlangan variantlaridan foydalanish kerakligi haqida ko'rsatmalarga ehtiyoj bor;

Boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning yozilishiga doir bir to'xtamga kelinishi kerak.

O'zga tillardan kirib kelgan o'zlashmalarga keladigan bo'lsak, prof. Borovkov [2] ning fikriga ko'ra boshqa tillar so'zlarning qabul qilinishiga doir Batuning "Chig'atoy gurungi" tarafdorlarining so'z qabul qilinishi "temir qonun" uniyatga bo'ysunmas ekan, u so'zlarni umuman tilga olib kirmaslik kerakligi haqida fikrlarini keltiradi. Bundan kelib chiqadiki, tilimizda o'zimizning so'zlarimiz darajasida singishgan o'zlashmalar so'zlarning genetik kelib chiqishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning boshqa tillardan fonetik tabiatga bo'ysundirilgan holda kirib kelganini ko'rib o'tish mumkin, masalan: l:tijāt~ehtiyot [Saqlanish, ehtiyotkorlik, xazira], esir~yesir [tul, beva ayol], etim~yetim [ota-onasiz yoki biridan ajralgan], Zəipə~zaifa [ayolga nisbat], zəril~zarur [kerak, lozim, shart], āvhāl~ahvol [holat, belgi], Nisf/nifs –[Yarim-hisob so'z]: Agar bersam munga gavhar taxtimni, Oqqiz, bo'lmas, bilgin, nisfi bahosi. (Ravshan), Niš~nish [o'tkir narsaning uchi; nayza]: Ko'k strelkalarining shaharga, tepaliklar va katta yo'llarga qaratilgan nuzalari... xanjar nishiday armiya mudofaasiga sanchilib turardi (I. Rahim, Chin muhabbat). Āšiq~oshiq [birovga muhabbat qo'ygani kishi; xushtor]: Muhabbat dardiga muhtalo oshiq, senga havas bilan boqurman chindan (A. Oripov. Yillar armoni).

Ammo bu leksemalarning imlosiga doir fikrimiz, o'zlashmalarning rus tili orqali boshqa tillardan kirib kelgan birliklardagi o'zgarishlarning qoldirilishi, ularning aynan boshqa tiladan kirib kelganligiga urg'u beradi va alohidalikni saqlab qoladi. Shu bilan birga bu jarayonning amaldagi holati yillar oralig'ida turkiy tillar doirasida tilimizdagi ba'zi bir elementlarning o'zgarishiga doir ta'siri bo'lganligini ham inkor etmaslik kerak.

Tadqiqot natijalari. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligiga 30 yil to'lgan bo'lsa-da, keksa avlod tilida rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar saqlanib qolib texnika taraqqiyoti orqali yosh avlod tilida ham boshqa tillardan so'zlar o'zlashib mahalliy tilga moslashib bormoqda. Prof. Shoabdurahmonov Sh. va Reshetov V.lar rus tilini 1930-90 yillar oralig'ida o'zbek tili tarkibiga singib ketishini O'rta Osiyoning Rossiyaga ixtiyoriy qo'shilishi bilan bog'lab izohlaydi, S.Rahimov esa rus tiliga oid birliklarning tilmiz va hatto sheva tarkibida qo'llanayotganligini oktabr to'ntarilishidan so'ng davr talabi bilan rus bo'lmagan millatlarning ikkinchi tiliga aylantirilganligi zarurati yuzasidan deb ko'rsatadi. Agar bu tildan o'zlashgan qatlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 1960-1990 yillar oralig'ida mahalliy xalqning hayotiga oid bo'lgan siyosiy shevalarning birinchi planga chiqarilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin: 1.Ijtimoiy-siyosiy so'zlar. 2. Madaniy oqartuv va maktab, sog'liqni saqlashga oid so'zlar. 3.Sanoat, transport bilan bog'liq so'zlar. 4.Qishloq xo'jaligiga doir so'zlar. 5. Fan va texnikaga oid so'zlar. 6. Savdo va moliya ishlariga oid so'z va terminlar. 7. Harbiy ish va fizkultura, sportga oid so'zlar. 8. Kalendar, vaqt va boshqa o'lchovlar bilan bog'liq so'zlar. 9. Uy-ro'zgor, o'ziq-ovqat, kiyim-kechakka doir so'zlar. Foizlar hisobida rus tiliga oid so'zlarning ko'proq keksa avlod tilida saqlanganligi hamda bu til elementlarini kundalik hayotga doir so'zlar tarkibida kengroq ishlatilishini kuzatish mumkin: Zərköp (BSh)~jarko'p (go'sht, kartoshka, pomidor, non va boshqa mahsulotlar

bilan tayyorlangan qovurdoq), zəətčik (BSh) - zaryadchik (adt.) - telefonni quvvatlantiruvchi moslama [rus. to'ldirmoq] kabilar.

Og'zaki matn bilan yozma matnning orasida juda katta farq mavjud, so'zlashuv uslubi nisbatan qaysidir ma'noda oson va qulay hisoblanib, ma'lum muddat oralig'ida inson miyasida yaxshi shakllanib ulgurmagani uzoq-yuluq fikrlar avtomatik tarzda tilga ko'chadi, (native) til vakili uchun gapni gapga ulash uqadar ham qiyin kechmaydi. Yozma nutq esa fikrlarning ketma-ketligini talab qiladi va nutqiy matn yaratish jarayonida tavnologiyaga yo'l qo'ymasligi uchun qisman mahorat talab qilinadi. Bu haqda ona tili fanidan davlat ta'lim standartida o'quvchidan matn yaratish jarayonida o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlariga rioya qilish, so'zlashuv nutqi bilan kitobiy nutq me'yorlariga amal qilish, gapda so'zlarni to'g'ri joylashtira olish, o'zgartgan tartib va inversiyalardan to'g'ri foydalana bilish kabi qobiliyatlarni egallash talab qilinadi.

Avvalo, har bir til o'rganuvchi yoki til vakili uchun og'zaki va yozma nutqning ikkisi ham birdek zarur va o'quvchilarning ba'zilarida yozma, ba'zilarida og'zaki nutq ustunlik qiladi. Bu — tabiiy. Shuningdek til vakili ko'pincha biror mavzuni muhokama qilish jarayonida uni yozishdan ko'ra gapirishni afzal ko'rishadi, buning asosiy sababi og'zaki nutq tarkibida ta'sirli jumalarga nisbatan oddiy detallarda aks etgan voqeylikni bayon etish mumkindir. Shu bois, asosan til o'rgatuvchi yoki o'qituvchi biror she'riy, nasriy, aralash (she'riy nasriy) asarning matni, tarkibidagi janri va mavzusiga doir o'quvchiga yozma vazifa berishi orqali o'quvchining matnda o'z dunyoqarashi bayonida so'zlarni tanlab-saralab, semantikasi va grammatikasi tushungan holda qo'llashiga erishadi. O'quvchida og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni matnni dastavval yozdirish, undan so'ng unga hikoya ayni shu matnni og'zaki bayon qildirish vositasida o'quvchining ham yozma, ham og'zaki til bazasini kengaytirishga imkoni mavjud bo'ladi. O'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini uyg'un ravishda oshirish maqsadida qiziqarli o'quv materiallari, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyat va bahs-munozaralar bilan birga, to'g'ri yozishga o'rgatuvchi turli xil qiziqarli mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq va shu ma'noda, ta'lim sohasi o'qituvchidan doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab etadi. O'quvchi kichik hajmli matnlarni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun, unda matnni yaxshilab o'qish, mazmunida nimaga ishora qilinayotganini tushunish ko'nikmasini shakllantirish lozim. O'qituvchi o'quvchi tomonidan tuzilgan matndagi (bu matn hatto badiiylardan yiroq bo'lishi ham mumkin) yozma nutq soffligini buzuvchi vositalar: vulgarizm, varvarizm, kanselyarizm, dialektizm va parazit so'zlarning ishlatilish doirasini yuqorida keltirilgan misollar orqali kamaytirishga va yo'qotishga erishadi. Masalan, 8-sinf o'quvchilari ishlab chiqilgan ona tili darsligida 25-26 darslarida A.Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida keltirilgan "Talab vodiysi" mavzusiga doir she'riy natn berilgan va o'quvchiga uning mag'zini chaqish, ya'ni nasriy bayoni berish topshirilgan. O'qituvchi tomonidan o'quvchiga eski o'zbek adabiy tili davriga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka to'g'ri berilmas ekan, ushbu mavzu doirasida to'laqonli tasavvurga ega bo'lmagan o'quvchining ayni mavzularning uzviy davomi bo'lgan keyingi mavzularga tushunmasligi kuzatiladi:

*Har nekim g'ayri talabdur tashlamoq,
O'zni maqsad manziliga boshlamoq.
Qolmasa olam mato'adin jihat,
O'zga nav' o'lg'ay sanga ul dam sifat.
Ganj (davlat, boylik)din yetkay asar vayroninga,
Zoti nuridin yorug'lug' joninga.
Ul yorug'lug' shavq o'tin tez aylagay,
Kim talab raxsh (ot, ulov)in sabukhez (yengil, chaqqon) aylagay.
Joning'a yetkay talabning rohati,
Qolmagay ranj-u tab (mashaqqat, mushkullik) ning shiddati.
Durg'a topqon soyi (sari, sayin) ko'nglung xosliq,
Bo'lg'oy osonroq sanga g'avvosliq. (Alisher Navoiy, «Lison ut-tayr»)*

Asar ikkiliklari dunyoviy nafsni so'ndirish va ruhiy poklanish nuqtayi nazaridan tahlil qilinmogi dardor: Inson ruhiy poklikni maqsad qilar ekan, g'ayri (boshqa) talablar, ya'ni bu dunyoga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirishi va ruhiy ozodalik sari o'zini boshlashi kerak. Ko'nglingda bu dunyo olam matolaridan iborat borliq qolmas ekan, ul damda bu vodi (ko'ngil xotirjamligi) sening ko'zingga o'zgacha namoyon bo'la boshlaydi. O'z ganjinasi (boyligi) bilan qop-qorong'i bo'lgan ko'ngil vodiyingni yoritadi. Bu yorug'lik ishqingni ko'paytiradi va poklik vodiysida sening otingni tez yeldiradi. Bul ruhiy ozodalikdan qiyinchilik va azoblar barham topadi, joning esa rohatda bo'ladi. Poklik daryosidan

dur topganing sayin, ko'ngil xotirjamligi bu daryoda senga g'avvoslikni oson qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarning xulosasi o'laroq shuni aytish joizki:

- imlo lug'atlarni kuzatish imlo lug'ati doirasida yagona xulosalangan lugatga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda;
- matnlar o'quvchilarning yozma nutq faoliyatini rivojlantirish, tushuncha va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladigan mazmun kasb etmog'i darkor;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. T.:2016. 27-b.
2. А. К. БОРОВКОВ О некоторых очередных вопросах орфографии узбекского литературного языка ЗАПИСКИ ИНСТИТУТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ АКАДЕМИИ НАУК СССР VII Издательство Академии Наук СССР. Москва: 1937 7-стр.
3. Abdurasulov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – T.:2009. 17-b
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent-2007. – 2005.
5. Madvaliyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. T.; Akadernashr. 2013. – B. 526.
6. Makhmaraimova S. T. Uzbek political and social, public discourse metaphoric models //Thematics Journal of Education. – 2021. – T. 6. – №. November.
7. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili //Toshkent: Tafakkur bo'stoni. – 2018.
8. N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo'ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. –T. Cho'lpon. 2007. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 128.
9. Kholova M. Pech genres of texts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound "j" dialects) //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1103-1107.
10. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – T.:1978. 169-b.
11. S.Rahimov. O'zbek tili Surxondariyo shevalari. T.:1985. 94-bet.
12. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent: O'qituvchi. – 2003. – T. 220.
13. Umurqulov B. An essential feature of artistik discourse //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 10. – C. 242-246.
14. Sayfullayeva R. R., Khalmuhamedova U. R., Botirova A. E. Language picture of the world and functional specialization of words //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 7. – C. 943-947.
15. Xolmanova Z. O'zbek tili imlo qoidalarini takomillashtirish davr talabi. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 2017. – B. 30-33
16. Холова М. А. Шевалар корпусининг жанрий теллашнинг лингвистик асослари // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
17. Холова М. А. O'zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o'rni (Boysun tumani "j" lovchi shevalar misolida) // Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
18. Холова М. А. Boysun shevasi onlayn ma'lumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida) // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" 339-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1625271>
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori: Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida /01.09.2020/ <https://lex.uz/acts/-316337>
21. O'zbek tilining izohli lug'ati II tom, 2020, 139-b.
22. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. T.; O'qituvchi. 2011. – B. 240.
23. <https://uzbekcorpus.uz/>
24. <http://uzschoolcorpara.uz/>
25. <https://dialect.uz/>
26. <http://uznatcorpara.uz/uz/POSTagger>

**QO'QON UNIVERSITETI
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА**

5 / 2022

ISBN: 2181-1695

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnoma asosida.
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida
chop etildi.

